

**OG'IZ BO'SHLIG'I KASALLIKLARINI DAVOLASHDA XALQ TABOBATI USULLARIDAN
FOYDALANISH**

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАРОДНЫХ СРЕДСТВ В ЛЕЧЕНИИ ЗАБОЛЕВАНИЙ ПОЛОСТИ
РТА**

USE OF FOLK REMEDIES IN THE TREATMENT OF DISEASES OF THE ORAL CAVITY

Ibrohim Rahmonovich Asqarov

*Andijon Davlat Universiteti Kimyo fanlari doktori, Kimyo kafedrasi professori,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ixtirochi, O'zbekiston "TABOBAT"
Akademiyasi raisi*

Xasanova Dilorom To'ychiyevna

Andijon Davlat Universiteti, Kimyo fanlari falsafa doktori (PhD)

Nishanova Dilquyosh Qodirjonovna

Andijon Davlat Universiteti, 2-kurs magistranti

Shamshidinova Umida Qodirjon qizi

Toshkent Davlat agrar Universiteti assistenti

Annotatsiya: Maqolada ayrim og'iz bo'shlig'i kasalliklarini davolashda xalq tabobati usullaridan foydalanish inson organizmiga ijobiy ta'sirlarini o'rganish jarayonida qo'llaniladigan dorivor o'simliklar va ularning shifobahsh hususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В статье приведены сведения о лекарственных растениях, используемых при изучении положительного влияния применения народных средств на организм человека при лечении некоторых заболеваний полости рта и их лечебных свойств.

Annotation: This article provides information about the medicinal plants used in the study of the positive effects of the use of folk remedies on the human body in the treatment of some diseases of the oral cavity and their medicinal properties.

Kalit so'zlar: stomatit, gingivit, xeylit, glossit, mavrak, dafna, g'ozpanja, oq akatsiya.

Ключевые слова: стоматит, гингивит, хейлит, глоссит, шалфей, лапчатка, акация.

Keywords: *stomatitis, gingivitis, cheilitis, glossitis, salvia, orientalis, acacia.*

KIRISH

Og'iz bo'shlig'i ovqat hazm qilish sistemasining boshlang'ich sohasi bo'lib, unda tish, milklar va til a'zolari joylashgan. yon tomonlari lunj bilan, yuqorida yumshoq va qattiq tanglay, pastdan esa, til osti mushaklari bilan chegaralangan. [1]

Og'iz bo'shlig'i kasalliklari ichida ko'p uchraydigan: stomatit, gingivit hamda glossit kasalliklari bezovta qilganda ularni uy sharoitida xalq tabobati usullari yordamida davolash choralar bilan quyida jadvalda batafsilroq tanishishingiz mumkin:

1-jadval

/r	Kasallik nomi	Ta'rifi	Xalq tabobati bilan davolash.
	Stomatit	Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining yallig'lanishi.	<p>1. Xom kartoshkani qirg'ichdan o'tkazib, unga biroz tuz sepib yalliglangan joyga qo'yilsa, yallig'lanish va achishish hissini kamaytiradi.[3]</p> <p>2. Sabzi sokini va suvni 1:1 nisbatda aralashtirib, og'izni har kuni 3 marta chayish tavsiya etiladi. Sabzi A vitaminga boy bo'lganligi sababli zararlangan to'qimalarning bitishini tezlashtiradi.[3]</p> <p>3. Kalendula guli ham yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi va regeneratsiya jarayonini tezlashtiradi. Undan dorivor eritma tayyorlash uchun 1qoshiq qurutilgan o'simlikni 1 stakan qaynagan suvga solib, sovutilib og'iz bo'shlig'inini har kuni chayib turiladi.[3]</p> <p>4. Marjon daraxti gulidan bir osh qoshig'i ustiga bir stakan qaynoq suv quyib, 30-40 daqiqa damlab qo'yiladi. Suzib olib kun davomida 6-8 mahal og'iz chayiladi.</p>
2.	gingivit	Milkarning yallig'lanishi.	<p>1. Tuzli suv bilan og'izni chayish.</p> <p>2. Moychechak o'tidan bir osh qoshig'i ustiga bir stakan qaynoq suv quyib, bir soat damlab qo'yiladi. Suzib olib kuniga 3-4 mahal og'iz chayiladi.</p> <p>3. Qirqbo'g'in o'tidan 2 osh qoshig'ini sirli idishga solib, ustiga 2 stakan suv suv quyiladi. Past olovda 15 daqiqa og'zi yopiq holda qaynatiladi, keyin 15 daqiqa tindiriladi. Suzib olib og'iz chayilsa shifo bo'ladi.</p> <p>4. Dafnadan olib chaynalsa, milklar yallig'lanishiga davo bo'ladi.[1]</p>

3	Glossit	Tildagi patologik o'zgarishlar, tilning yallig'lanishi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Sulidan ko'proq istemol qilinsa til kasalligiga shifo bo'ladi. 2. G'ozpanjao'tidan 3 osh qoshig'ini kechqurun termosga solib, ustidan 3 stakan qaynoq suv quyiladi. Ertalab suzib olib, 2 stakanı kun davomida oz-ozdan ichiladi, qolgani bilan o'g'iz chayilsa, tildagi yorilishlar tuzaladi. 3. Anjir suvini qaynatib, g'arg'ara qilinsa, tildagi shishlar yo'qoladi.[1] 4. Xalq davolari orasida romashka, adachayi, calendula kabi o'tlar qo'shilgan yallig'lanishga qarshi damlamalar mavjud. Shuningdek, og'izni oz miqdorda ichimlik sodasi qo'shilgan suv bilan yuvish tavsiya etiladi. [2]
4.	Xeylit	Lablar qizil hoshiyasining yallig'lanishi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Lab yorilganda har kuni g'oz yog'i surtilsa, davo bo'ladi. 2. O'rtacha olmani olib qirg'ichdan o'tkazib, teng miqdorda saryog' bilan aralashtiriladi va lab yorilganida surtiladi. 3. 3 osh qoshiq quriligan adachayi 0,5 l qaynoq suvga quyiladi va 10 daqiqa davomida qaynatiladi. Sovutilganda so'ng, damlama kuniga bir necha marta 30 daqiqa davomida kasal yuzalarga qo'llaniladigan losonlar shaklida qo'llaniladi. 4. Eman po'stlog'i juda samarali vosita bo'lib, yallig'lanishni, shishni yengillashtiradi, yaralarni davolashga yordam beradi. [3]

Xulosa o'rnda shuni keltirish mumkinki, og'iz bo'shlig'i shilliq qavati, milk, til va lablar nozik a'zolar bo'lib, ularda aniqlangan kasalliklarning sababchi nuqsonlari bartaraf etilib, to'g'ri davolansa kishi og'iz bo'shlig'i bilan bog'liq hastaliklar tezda tuzaladi. Og'iz bo'shlig'i hastaliklarini davolashda tibbiy choralar bilan birga, tabiiy usullardan ham foydalanish tavsiya etiladi. Yuqorida Xalq tabobati usullaridan uy sharoitida foydalanish natijasida qimmat dori vositalari o'rnnini bosuvchi shifobaxsh davo choralarini og'riqni goldirish, og'izdagi yaralarni davolashda, qisqa muddatli simptomlarni olib tashlash

odamga ovqatlanish va dam olish imkonini beradi. Og'iz shilliq qavati yallig'lanishga, kimyoviy preparatlarga sezuvchanligi yuqori bo'lishi mumkinligini inobatga olgan holda kimyoviy dori vositalari o'rnnini bosuvchi, jumladan, aloe sharbati, atirgul yog'i, shaftoli yog'i, zig'ir yog'i hamda kalendula damlamalaridan foydalanishni taklif qilgan bo'lar edik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.R. Asqarov "Sirli tabobat" Toshkent 2021."Fan va texnologiyalar nashriyot-matba uyi", (498-505-b)
2. Фармакология. 12-е издание. Д.А. Харкевич.2017 г .
- 3.Клиническая фармакология. 5-е издание. Кукес В. Г. 2017 г.
4. Фармакология клинический подход. Клайв Пейдж- 2012 г.
5. Харкевич Д. А. Фармакология... 2010 г
6. Xolmatov H.X. Farmakogneziya-I. Toshkent. "Fan" nashriyoti. 2007.
7. Mahmud Hasaniy (tarj.) "Tabobat ummonidan tomchilar" , "O'zbekiston" NMIU, 2016. (86-87-b)
8. <https://www.trt.net.tr>
9. <https://www.klinika.uz>